

## IQTISODIYOTIMIZNING INVESTITSION PORTFELNI BOSHQARISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYA YUTUQLARIDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI

**H.Xotamov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

**S.Uvaytov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

**O.N.Xaitov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali assistenti

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada moliya bozorining asosiy ishtirokchisi bo'lgan investorlar uchun investitsion portfelni samarali diversifikatsiya qilish eng muhim vazifalardan biridir. O'z navbatida investorning strategiyasidan kelib chiqqan holda ularni uch guruhga bo'lish mumkin. "Agressiv" investor yuqori daromad ko'zlar ekan, yuqori risklilik darajasiga ham tayyor turadi. "Mo'tadil" investorlar guruhi esa risk va daromadlilik ko'rsatkichlarini mutanosibligiga erishishga intiladi. "Konservativ" investor esa nisbatan past yo'qotishlik ehtimoliga tayangan holda daromad olishga harakat qiladi. Shunday ekan, har bir investor o'z portfelining qiymati, risklilikka tayyorlik darajasi, strategik va taktik maqsadlariga ko'ra farqlanadi. Ana shu xususiyatlardan kelib chiqqan holda investorlar o'z portfellarini shakllantirishadi.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, innovatsiya faoliyati, qimmatli qog'ozlar, tashkiliy boshqarish, ijtimoiy sohalar, milliy iqtisodiyot, xo'jalik subyektlari, kapital, fond bozori, investitsiyalar, aholining shaxsiy jamg'armalari

Moliya bozorining asosiy ishtirokchisi bo'lgan investorlar uchun investitsionportfelni samarali diversifikatsiya qilish eng muhim vazifalardan biridir. O'z navbatida investorning strategiyasidan kelib chiqqan holda ularni uch guruhgabo'lish mumkin. "Agressiv" investor yuqori daromad ko'zlar ekan, yuqori risklilik darajasiga ham tayyor turadi. "Mo'tadil" investorlar guruhi esa risk va daromadlilik ko'rsatkichlarini mutanosibligiga erishishga intiladi. "Konservativ" investor esa nisbatan past yo'qotishlik ehtimoliga tayangan holda daromad olishga harakat qiladi. Shunday ekan, har bir investor o'z portfelining qiymati, risklilikka tayyorlik darajasi, strategik va taktik maqsadlariga ko'ra farqlanadi. Ana shu xususiyatlardan kelib chiqqan holda investorlar o'z portfellarini shakllantirishadi.

Bugungi kunda investitsion portfelni yaratish va boshqarishda moliyaviy texnologiya yutuqlaridan foydalanish ommalashmoqda. Bunda sun'iy intellekt mahsuli bo'lgan robo-

maslahatchilar esa investorlarning yordamchisiga aylanib ulgurdi.

Robo-maslahatchilar moliya bozorida investitsiya kiritmoqchi bo'lgan ishtirokchilarga moliyaviy maslahatchi xizmatini taklif qiladi, inson aralashuvini minimallashtirish orqali investitsiyalarni boshqarish imkonini beradi. Ular matematik qoidalar yoki algoritmlarga asoslangan holda raqamli moliyaviy maslahatlar taqdim etadi va investitsion portfelni boshqarish xizmatini ko'rsatadi.

Robo-maslahatchilardan investitsiya fondlariga raqobatchi sifatida moliya bozorida keng foydalaniladi. Robo-maslahatchilar bu investorlarga moliyaviy maslahat berish uchun avtomatlashtirilgan algoritmlardan foydalanadigan mexanizatsiyalashgan platformalar shaklida xizmat ko'rsatadi. Robo-maslahatchilar foylanuvchilar uchun qulaylik va an'anaviy moliyaviy maslahatchilardan ko'ra arzon narxlardagi xizmatlarni taqdim etadi va riskni hisobga olgan holda ishlashda ham samaradorlikka ega.

Robo-maslahatchilar segmentida xususiy investorlar o'zlarining ko'lami va riskka bo'lgan moyilligiga qarab investitsiya hajmlarini tanlash imkoniyatlari mavjud bo'lib, robo-maslahatchilar avtomatlashtirilgan onlayn portfellarni taklif qiladi. Bu platformalar ayniqsa o'z investitsion portfelini doimiy ravishda monitoring qila olmaydigan yoki buni istamaydigan investorlar uchun afzal ko'riladi. Bunday avtomatlashtirilgan investitsiya xizmatlari boshlang'ich kapitali kam bo'lgan va o'ziga xos investitsiya risklarisiz yuqori daromad olishni hohlaganlar uchun ham yaxshi imkoniyat sifatida baholash mumkin.

Robo-maslahat xizmatini taqdim etuvchi platformalar mijozlardan moliyaviy ahvoli, xavf darajasi va kelajakdagi maqsadlari haqida ma'lumot to'plash uchun onlayn so'rovnomadan foydalanadilar, so'ngra ma'lumotlardan maslahat berish va mijoz aktivlarini avtomatik ravishda investitsiya qilish uchun foydalanadilar.

Robo-maslahatchilar global bozorining hajmi 2020 yilda 13,6 milliard dollarga baholangan bo'lsa, 2026 yilga kelib 36,6 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, bu 2021 yildan 2026 yilgacha yillik 22,0 foizga o'sish sur'ati ko'rsatadi. Butun dunyo bo'ylab robot-maslahat xizmatidan foydalanuvchilar 2020 yilda 8,7 million nafar bo'lgan, 2023 yil yakunida esa foydalanuvchilar 15,5 million bo'lishi kutilmoqda. 2027 yilga kelib bu ko'rsatkich 234,30 million foydalanuvchiga yetadi. Robo-Advisors bozorida boshqariladigan aktivlar qiymati 2023-yilda 2,76 trillion dollar, 2027 yilga kelib esa 4,66 trillion dollarga yetishi prognoz qilinmoqda.<sup>98</sup>

Robo-maslahatchi xizmatlariga ro'yxatdan o'tgan yangi mijozlar birinchi navbatda onlayn so'rovnomani to'ldiradilar va moliyaviy maqsadlari haqida asosiy ma'lumotlarni taqdim etadilar. Savollar risklarga bardoshlilik, moliyaviy vaqt jadvali va maqsadlari, daromadlari, majburiyatlari, jamg'armalari va joriy investitsiyalar bo'yicha narsalarni o'z ichiga olishi mumkin. Yig'ilgan ma'lumotlar bilan robo-maslahatchi investorning profilini yaratadi va investor amalga oshirishi kerak bo'lgan eng yaxshi portfel taqsimotini bashorat qilish uchun algoritmdan foydalanadi. Robo-maslahatchi muntazam ravishda investitsiyalar portfelini bozorning o'zgaruvchanligi va investorning maqsadlari va xavf-xatarlarga chidamliligi o'zgarishi asosida kuzatib boradi va muvozanatlashtiradi. Sun'iy intellekt texnologiyasi orqali robo-maslahatchi ularning moliyaviy xatti-harakatlarini tushunish uchun shaxsning moliyaviy operatsiyalari ma'lumotlarini tahlil qiladi. Bundan tashqari, u investitsiya, bank va kredit karta operatsiyalarini tahlil qiladi, bu robot-maslahatchilarga o'zlarining investitsiya maqsadlariga mos keladigan shaxsiylashtirilgan portfelni ishlab chiqishga imkon beradi.

2023-yil boshiga ko'ra eng yaxshi deya robo-maslahatchilar sifatida quyidagilar e'tirof etildi<sup>99</sup>:

Umumiy ko'rsatkichlar bo'yicha eng yaxshi robo-maslahatchi- **Betterment**

1. Endi investitsiya qilishni boshlaganlar uchun eng yaxshi robo-maslahatchi- **Vanguard Digital Advisor**

2. Yuqori balans uchun eng yaxshi robo-maslahatchi- **Vanguard Personal Advisor Services**. Minimum hisob uchun chegara 50 000\$ mablag'dan boshlanadi.
3. Eng kam boshqaruv uchun to'lov oluvchi robo-maslahatchi- **SoFi Automated Investing**.
4. Minimum balans 1\$dan boshlansa, komission haq mavjud emas.
5. Moliyaviy rejalashtirish uchun eng yaxshi robo-maslahatchi – Wealthfront
6. Har bir moliya bozori ishtirokchisi o'z investitsion maqsadlaridan kelib chiqqan holda robo-maslahat platformalarini tanlashi zarur. Bu platformalar investitsion portfelni boshqarish bilan birga moliyaviy rejalashtirish bo'yicha ham maslahat xizmatlarini taqdim etar ekan, professional mutaxassisdan maslahat olish imkoniyatini ham yaratadi va buning uchun alohida to'lov ta'riflari mavjud. Shuning uchun robo-maslahatchi tanlayotganda ularning xususiyatlarini o'rganib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. The FINTECH Book: The Financial Technology Handbook for Investors, Entrepreneurs and Visionaries. [Susanne Chishti](#), [Janos Barberis](#). ISBN: 978-1-119-21887-6 April 2016, 312 Pages.
2. Robo-Advisory. Investing in the Digital Age. Peter Scholz. December, 2020
3. [www.statista.com/outlook/dmo/fintech/digital-investment/robo-advisors/worldwide](http://www.statista.com/outlook/dmo/fintech/digital-investment/robo-advisors/worldwide)
4. [www.forbes.com/advisor/investing/best-robo-advisors/](http://www.forbes.com/advisor/investing/best-robo-advisors/)